

KIBR-HAVO VA MANMANLIKDAN SAQLANISH*Saida'zamxon G'ulomov**O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola kibr va manmanlikning salbiy oqibatlarini o'rganib, ularning o'zaro munosabatlarga, martaba va shaxsiy farovonlikka zararli ta'sirini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Kamtarlik, o'sish tafakkuri, kibr, manmanlik, muvaffaqiyat.

Аннотация: В данной статье исследуются негативные последствия высокомерия и тщеславия, подчеркивается их пагубное влияние на отношения, карьеру и личное благополучие.

Ключевые слова: смирение, установка на рост, высокомерие, тщеславие, успех.

Abstract: This article explores the negative consequences of arrogance and conceit, highlighting their detrimental impact on relationships, careers, and personal well-being.

Keywords: Humility, growth mindset, arrogance, conceit, success.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION: Kibr va manmanlik bir-biriga yaqin va o'xshash salbiy sifatlardir. Ulamolar kibr qalbdan namoyon bo'lib, kibrli odam boshqalardan o'zini ustun qo'yishi bilan ajralib turadi, manmanlikka yo'liqqan kimsa esa o'zining fe'l atvori, kiyim-kechagi, uy-joyi va hunariga o'zi mahliyo bo'lgan, o'z tasavvur olamiga boshqalarni yaqinlashtirmaydigan odamdir deyishadi.

Ibn Umar roziyallohu anahuning rivoyat qilishicha, Nabiy sollallohu alayhi vasallam shunday degan: "Bir kishi izarini kibr bilan sudrab borayotganida, birdan uni yer yutib yubordi. Endi u qiyomat kunigacha yerga pastlab boraveradi". (Buxoriy, Muslim, Termiziy, Nasoiy va Ahmad rivoyati)[1]

"Bugungi kunimizda ham o'zini o'zgalardan arzimagan narsa bilan ustun qo'yadiganlar, kiyimi, soch turmagi, chiroyi bilan manmanlik qiladiganlar ko'p uchramoqda. Biroq unutmaylikki, bundaylarni yer ham o'z ustida ko'tarib yurmay, yutib yuborishga tayyor ekan. Qiyomat kuni unday odamlarning ahvoli qanday

bo‘lishini Alloh taoloning O‘zi biladi! Shunday yomon ahvolga tushmayin degan odam zinhor kibr qilmasin, o‘zini boshqalardan ustun qo‘ymasini.” deya ogohlantirishadi ulamolar.

Kibrli kimsa haqni inkor qilishi bilan ham ajralib turar ekan. Ya’ni u o‘zini shu qadar baland tutadiki, undan ilmda, boylik va martabada yuqori bo‘lganlarni ham tan olgisi kelmaydi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kibr haqni inkor qilish va odamlarni haqir sanashdir”, deb ta’riflaganlari haqida hadislar bor.[2]

TADQIQOT USULLARI / МЕТОДЫ / METHODS: Ushbu ilmiy maqolani yozishda bir qancha kitoblardan va internet materiallaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA / ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION: Kibr ilm ahli orasida ham boy-badavlatlar va oddiy odamlar orasida ham bir qancha sabablar bilan nomyon bo‘larkan. Kimdir o‘zini boshqalardan ilmiroqman deb o‘ylab, qolganlarga past nazar bilan qarasa, boshqasi amalda (ibodatda) hammadan o‘zib ketganman degan o‘yda kibrga beriladi. Yana birov mansab-martabasi tufayli atrofida gilarini mensimaydi. Biroq haqiqiy ilm egasi tavoze’li bo‘lib, kibrga yaqinlashmas ekan. O‘zini “ilmli” hisoblaganlar qancha ilm olsalar ham fe’llarida buzqlik bo‘lgani sababli yomon sifatlardan xalos bo‘la olmay mutakabbirlikka berilar ekanlar.

Amalda (ya’ni ibodatda) hammadan o‘zib ketganman, deb o‘ylovchilar esa boshqalar ularni ulug‘lashlari, joy bo‘shatishlari, hurmatu e’zoz ko‘rsatishlari, ularning taqvolari va ibodatlarini madh qilib turishlarini da’vo qilishar ekan.

Ayrimlar ota-bobolarining ilmi-mavqeyiga tayanib, hasab va nasabda hammadan balandman degan o‘yda o‘zidan ilmi va amali ustun bo‘lgan kishilarga takabburlik qilishar ekan. Biroq muqaddas dinimiz ta’limotida nasab kishining amalidan ustun qo‘yilmagan.

Kuch-quvvati, jamiyatdagi mavqeyi bilan g‘ururga beriluvchilar odatda boshqalarni “seni unday qilib yuboraman, bunday ahvolga solaman”, deya faxrlanadilar. Shuningdek, yana bir toifa odamlar qarindosh-urug‘lari, tarafdorlari, farzandlari, xizmatchi va shogirdlari bilan kibrlanib, atrofda gilaridan o‘zini ustun qo‘yadi.

Afsuski bu holatlarning hech birida inson uchun foyda yo‘q ekan. Ularda mavjud ne‘matlar – ilm ham, davlatu savlat ham, kuch-quvvatu chiroy ham aslida Allohning fazlu marhamati ekanini, istagan paytda bu ne‘matlardan bandasini mahrum etishini, istagan bandasini esa eng haqir darajadan eng yuksak martabagacha ko‘tarish Allohning izni ixtiyorida ekanini unutmashlik qalbni kibrlanishdan asraydi.

NATIJALAR / PEZYJBTATY / RESULTS: Alloh taolo “Nahl” surasida: “Ilohingiz yagona ilohdir. Oxiratga iymon keltirmaydiganlarning qalblari inkor qiluvchidir, o‘zlari esa mutakabbirdirlar. Shubhasiz, Alloh nimani sir tutayotganlarini va nimani oshkor qilayotganlarini biladir. Albatta, U mutakabbirlarni xush ko‘rmas”, degan (22-23-oyatlar).[3]

Alloh har bir odamning ko‘nglidagi sirlarini ham oshkora qilayotgan amallarini ham bilguvchi zotdir. Qalblari haqiqatni inkor etayotgan, o‘zlari mutakabbirlik qilayotganlarni ham bilib turadi.

Shu boisdan, Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Qalbida bir dona achitqi urug‘i og‘irligida iymoni bor odam do‘zaxga kirmaydi. Qalbida bir dona achitqi urug‘i og‘irligida kibri bor odam jannatga kirmaydi”, dedilar”[4]

“Ey Allohning rasuli! Kishi kiyimi go‘zal bo‘lishini, poyafzali go‘zal bo‘lishini yoqtiradi-ku?” dedi bir odam. “Albatta, Alloh go‘zaldir va go‘zallikni sevar. Kibr haqni inkor qilish va odamlarni haqir sanashdir”, dedilar Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam”. (Muslim va Termiziy rivoyat qilgan).

Demak, chiroyli kiyimlar kiyish, chiroyli hayotga intilish ayb emas, aynan shuni vosita qilib, boshqalarga past nazar bilan qarash, mol-mulki, davlati, mansabi, kiyimlari va buyumlariga bino qo‘yish manmanlik va kibrlanish bo‘larkan.

Odatda manman kishilar o‘z aybini tan olavermaydi. Biroq har bir odam o‘zining fe‘l atvorini nazardan o‘tkazib, o‘zini o‘zi isloh qilib turishi foydadan holi emas. O‘zida manmanlik alomatlari yo‘q deb o‘ylaydigan kishilar o‘z fe‘l atvoriga razm solsinlar, agar ularda quyidagi belgilar sezilsa, demak kibrdan xalos bo‘lish uchun harakatga kirishsinlar.

O‘zi o‘tirgan holda odamlarning atrofida yoki huzurida tik turishini yoqtirish, ortidan odamlarni ergashtirib yurishni xush ko‘rish, bironing ziyoratiga bormaslik, kimningdir yoniga o‘tirishdan orlanish, o‘z ehtiyoji uchun xizmatini o‘zi qilmaslik, oilasi, ro‘zg‘ori uchun kerakli narsani boshqa bironvga ko‘tartirib yurishni xush ko‘rish, naslu nasabi, kiyim-kechagi, mashinasi, uy-joyini yaxshiligi, mol-mulki ko‘pligi, mansabi balandligi tufayli o‘zini boshqalardan ustun deb bilish kibrlanishning alomatlari hisoblanar ekan.

XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION: G‘iybat, hasad kabi kibrlanish ham qalb xastaliklaridan bo‘lib, uni davolash, unga qarshi kurashisheng avvalo insonning o‘ziga bog‘liq. Qalbni kibrdan poklash farzi ayndir, deydi ulamolar. Biroq u o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib qolmaydi. Kibrni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlash uchun ilmiy va amaliy choralar ko‘rilishi kerak. Banda o‘zini va Parvardigorini tanisa, o‘zining kimligini, qanday yaralganini va unga yetgan ne‘matlar kim tomonidan ato etilayotganini anglasa, Allohni chin ma’noda tanib, ulug‘lik U zotdan boshqaga to‘g‘ri kelmasligini tushunib yetsa kibr uni o‘z-o‘zidan tark etadi.

Shuningdek, amaliy ravishda Alloh taologa tavozu’ qilib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning, ahli solihlarning axloqidan ibrat olib yashasa qalbini kibrdan poklay oladi. Eng muhimi ma’rifatga intilish, hayot hikmatlaridan ibrat olish, donishmand va ulamolarning kibr va manmanlik kabi qalb xastaliklarining zararlari haqidagi nasihatlariga quloq tutish va kibrdan poklanishga intilish zarur. Aks holda kibr insonni ikki dunyo saodatidan mahrum etuvchi vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

СПИСОК ИСТОЧНИКОВ / REFERENCES:

1. Kiyim kibrining kasri <https://muxlis.uz/oz/article/kiyim-kibrining-kasri->
2. “Kibr haqida” savolga javobni o‘qing <https://namozvaqtlari.com/savol-javoblar/22796-kibr-haida.html>
3. Nahl surasi <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=16>
4. Odamlarning uch toifasi jannatga kirmaydi <https://m.aniiq.uz/uz/yangiliklar/odamlarning-uch-toifasi-jannatga-kirmaydi>